ZARAR – YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA

Raxmatov Nozimjon G‘aforovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirlining 2-son Toshkent akademik litseyi Huquqshunoslik fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruv organlari a’zolarining fuqarolik-huquqiy javobgarlik sharti sifatida yuridik shaxsda yuzaga keladigan zarar bilan bog’liq munosabatlar ko’rib chiqiladi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida uni takomillashtirishga oid fikr-mulohazalar ilgari suriladi.

Kalit so’zlar: yuridik shaxs, qarzdor, zarar, boy berilgan foyda, neustoyka, adolatlilik va mutanosiblik prinsipi.

O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (keyingi o’rinlarda – FK) 324-moddasiga[1] binoan qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart. Ushbu Kodeksning 985-moddasida esa g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozimligi nazarda tutilgan.

Fuqarolik huquqida zarar deganda moddiy va nomoddiy ne'matlarga daxl qilinishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibat tushiniladi. Shu asosda mulkiy zarar va nomulkiy ziyon farqlandi[2].

Moddiy zarar mulkiy yo'qotishlardan – jabrlanuvchi huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etish uchun amalga oshirgan yoki amalga oshirishi kerak bo'lgan xarajatlardan; jabrlanuvchining yo'qotilgan yoki shikast yetkazilgan mol-

mulki qiymatidan; jabrlanuvchi shaxs olishi mumkin bo'lgan, lekin huquqbuzarlik sodir etilishi natijasida ololmay qolgan daromadlardan. Bunda birinchi va ikkinchi bandda ko'rsatilganlar haqiqiy zarar, uchinchi bandda ko'rsatilganlar boy berilgan foyda deb nomlanadi. Boy berilgan daromadlar hajmini aniqlashda "fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlari" va uni olish uchun amalga oshirilgan haqiqiy choralar va tayyorgarlik hisobga olinadi.

Moddiy zarar naturada qoplanishi mumkin (shikast yetkazilgan shyoning ta'mirlab berilishi, ashyo o'rniga o'sha turdagi va sifatdagi boshqa ashyo taqdim etilishi) yoki pulda qiymati to'lab berilishi mumkin. Zararni qoplash shartnomaviy munosabatlarda ham, shartnomadan tashqari munosabatlarda ham qo'llanishi mumkin bo'lgan fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida zararni to'liq qoplash prinsipi amal qiladi. Ya'ni, agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararning to'la qoplanishini talab qilishi mumkin (FK 14-m.). Shuningdek qonunlarda yoki shartnomada ko'rsatilgan hollarda to'liq javobgarlikdan chekinishga yo'l qo'yiladi (FK 332-m.). Inflatsiya sharoitida zarar miqdorini hisoblash asosi bo'lgan narxlarda o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shu boisdan FKning 324-moddasida belgilanadiki, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo'lmasa, - da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

Sud amaliyotida ba'zi holatlarda zararning aniq miqdorini isbotlash qiyinchilik tug'diradi va ayrim hollarda zarar miqdori aniq ko'rsatilmaganligi da'voni qanoatlantirishni rad etishga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan FKga zararning aniq miqdori isbotlanmagan bo'lsa-da, da'voni qanoatlantirishni

rad etmay sud tomonidan oqilona darajada ishonchlilik bilan javobgarlikning adolatlilik va mutanosiblik prinsiplariga amal qilgan holda javobgarlik hajmini belgilashga imkon beradigan qoidalarni kiritish taklif etiladi[3].

Fuqarolik huquqida zarar mavjud-mavjud emasligidan qat'iy nazar fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar ham mavjud. Xususan, majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda to'lanadigan neustoyka bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashi shart emas.

Biroq fuqarolik huquqida javobgarlik, asosan, kompensatsion (tiklash) funksiya bajarganligi uchun zarar yetish holati javobgarlikning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Zararni qoplashdan qat'iy nazar qo'llanadigan qo'shimcha sanksiyalar esa fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini majburiyatlarni lozim darajada bajarishga undab jazolovchi funksiya bajaradi.

Nomoddiy zarar esa jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli nomoddiy ne'matlarga daxl qilinganda vujudga keladi va jismoniy shaxslarning hayoti va sog'lig'i, shaxsi, sha'ni va qadr-qimmati, jismoniy va yuridik shaxslarning ishchanlik obro'siga putur yetkazish natijasi hisoblanadi. Nomoddiy ziyon moddiy shaklda kompensatsiya qilish, raddiya berish kabi choralar bilan himoya qilinishi mumkin. O.V. Bogdanov tomonidan yuridik shaxs ishchanlik obro'siga yetkazilgan zararni undirishga oid maxsus qoida kiritishni taklif qiladi. Hozirda bunday ishlarni FKning 100-moddasi qoidalari asosida ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek fuqarolik-huquqiy javobgarlik bo’yicha zarar miqdorini aniqlashda aralash ayblilik(смешанная виновность) bilan zarar yetkazilganda, ya’ni zarar yetkazilishi hamda uning hajmi ortishida qarzdor (zarar yetkazuvchi) bilan birga kreditor (jabrlanuvchi)ning ham aybi bo’lgan hollarda qarzdor (zarar yetkazuvchi)ning fuqarolik-huquqiy javobgarligi hajmini cheklashga yo’l qo’yilishi mumkin[6].

Keltirilgan tahlillar asosida yuridik shaxs boshqaruv organlari va ishtirokchilarining huquqqa xilof xulq-atvori natijasida yetkaziladigan zararni

ko'rib chiqadigan bo'lsak, Y.N. Nazarova yuridik shaxsga yetkazilgan zarar bo'yicha quyidagicha ta'rif keltiradi: "boshqaruv organlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi nuqtayi nazaridan zarar deganda – yuridik shaxsda odatdagi bozor narxlari bo'yicha teng qiymatli muqobil ijroga ega bo'lmagan majburiyatlar yuzaga kelishi; o'xshash holatlarda amalga oshiriladigan xarajatlarga qaraganda ortiqcha sarf-xarajatlar amalga oshirilishi; yuridik shaxs mol-mulkining yo'qotilishi yoki uning qiymati kamayishida ifodalanadigan mulkiy yo'qotishlarni tushunish kerak[7]." Fikrimizcha, boshqaruv organlarining huquqqa xilof faoliyati natijasida yuridik shaxsga yetkaziladigan zarar yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Garchi nomulkiy tusda bo'lsa ham yuridik shaxsning ishchanlik obro'siga (gudvill) putur yetishini, natijada tadbirkorlik subyektining kontragentlari yoki mijozlari kamayib ketishini, ulushlarning real qiymati, aksiyalarning bozor qiymatining pasayib ketishini ham ziyon sifatida e'tirof etish mumkin.

Yuridik shaxs ishtirokchilari tomonidan belgilangan majburiyatlarga amal qilmaslik, yuridik shaxs boshqaruv organlari a'zolarining yuridik shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishdan iborat majburiyatlarga rioya etmaslik natijasida yuridik shaxsga yetkazilgan zarar to'la hajmda qoplanishi kerak. Shuningdek, yuridik shaxs ishtirokchilari o'rtasida tuziladigan shartnomaga (ta'sis shartnomasi) hamda ijro organlari a'zolari bilan yuridik shaxs o'rtasida tuziladigan shartnomada majburiyatlar buzilganligi uchun neustoyka to'lash majburiyati ham nazarda tutilishi mumkin. Neustoyka yuridik shaxsga yetkazilgan zarar tarkibiga kirmasa-da, oshirilgan javobgarlik nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega.

Qolaversa, yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruv organlari a'zolarining huquqqa xilof xulq-atvorining salbiy oqibati sifatida yuridik shaxsning bankrotligi yuzaga kelishini ham e'tirof etish mumkin. Bankrotlik shaklidagi salbiy oqibat yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruv organlarining tashqi, ya'ni kreditorlar oldidagi javobgarligi sharti hisoblanadi.

Shu bilan birga boshqaruv organlari a'zolariga zararni qoplash haqida talab qo'yish yuridik shaxsga yetkazilgan zararni fuqarolik huquqlarini himoya

qilishning boshqa usullari, jumladan, bitimlarni haqiqiy emas deb topish, haqiqiy bo'lmagan bitimlar oqibatlarini qo'llash, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, zararni bevosita kontragentlardan yoki yuridik shaxs xodimlaridan undirish orqali qoplash imkoniyatiga bog'liq bo'lmasligi kerak. Biroq agar yuridik shaxsga yetkazilgan zarar fuqarolik huquqlarini himoya qilishning boshqa usullari orqali qoplangan holatlarda ushbu zarar bo'yicha boshqaruv organlari a'zolarining yuridik shaxs oldidagi fuqarolik-huquqiy javobgarligi istisno etilishi kerak. Chunki bunday hollarda ayni bir zararni ikki marta undirish holati yuzaga kelib yuridik shaxsda asossiz orttirilgan boylik yuzaga kelishi mumkin. Qolaversa, fuqarolik huquqlarini himoya qilishning boshqa usullarini qo'llash orqali zarar qoplanishi bilan boshqaruv organlari a'zolarining javobgarlikdan ozod etilishi ularga qilgan xatolarini o'z tashabbuslari bilan (masalan, bitimni haqiqiy emas deb topish, zararni kontragentlardan undirish haqida da'vo talablari bilan murojaat etish) tuzatish imkoniyatini bergan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // URL: https://lex.uz/docs/111189

2. Богданов О. В. Вред-как условие гражданско-правовой ответственности: автореф . дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2001 – с. 12-13.

3. Гражданское право. В 4 т. Т. 1: Общая часть : учеб. для студентов вузов, обучающихся по направлению 521400 «Юриспруденция» и по специальности 021100 «Юриспруденция» / [Ем В.С. и др.]; отв. ред. — Е.А. Суханов. — 3-е изд., перераб и доп. — М. : Волтерс Клувер, 2006. — 326 с.;

4. Богданов О. В. Вред-как условие гражданско-правовой ответственности: автореф . дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2001 – с. 23.

5

5. Гражданское право: Учебник. В 2 т. / Под ред. Б.М. Гонгало. Т. 1. 2-е изд. перераб. и доп.– М.: Статут, 2017. – с. – 324;

6. Назарова Е.Н. Гражданско-правовая ответственность членов органов управления хозяйственных обществ: дисс…канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2015. – 170 с.